

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO'MITASI
HUZURIDAGI FISKAL INSTITUTI**

*Qo'lyozma huquqi
UDK:336.2(575.1)*

IDIRISOV ALISHER OTAJONOVICH

**SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TIZIMIDA SOLIQ NAZORATINI
TAKOMILLASHTIRISH**


08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: Urmonov Jaxongir Jaloldinovich,
i.f.d., professor**

Toshkent shahri — 2023-yil



MUNDARIJA

	KIRISH	3
I-BOB	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGIDA SOLIQ NAZORATI VA UNI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	
	1.1-§. O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan soliq nazorati shakllari	13
	1.2-§. Soliq nazoratini amalga oshirishning nazariy va huquqiy asoslari	26
	1.3-§. Soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilishda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq munosabatlar	45
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar	53
II-BOB	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ NAZORATINING AMALDAGI HOLATI VA TAHLILI	
	2.1-§. Kameral soliq tekshiruvini o'tkazish va uning tahlili	54
	2.2-§. Sayyor soliq tekshiruvini tashkil etish va uning tahlili	72
	2.3-§. Samarali va ta'sirchan soliq auditini o'tkazish va uning tahlili	84
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	103
III-BOB	XORIJIY MAMLAKATLARNING SOLIQ NAZORATI BO'YICHA ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA TADBIQ QILISH ISTIQBOLLARI	
	3.1-§. Xorijiy mamlakatlarda soliq nazoratini tashkil etishning ilg'or tajribalari, O'zbekiston soliq tizimida qo'llashning samarali jihatlari	104
	3.2-§. O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligi tizimida soliq nazoratini yanada takomillashtirish masalalari	113
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	120
	XULOSA VA TAKLIFLAR	122
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	126
	ILOVALAR	133

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon miqyosida iqtisodiy erkinlikni ta'minlash mamlakatlarning budjet daromadlari manbalarini barqarorlashtirish va soliq nazoratining sinalgan zamonaviy vositalarini qo'llagan holda budjet intizomini ta'minlashga qaratilgan harakatlar dolzarbligini ko'rsatmoqda. Xalqaro tadqiqotlar instituti bo'lmish "The Heritage Foundation"ning 2020-yildagi tahlili yakunlariga muvofiq, iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha Estoniya 10-o'rin, Gruziya 12-o'rin, Litva 16-o'rin, Latviya 32-o'rin, Armaniston 34-o'rin, Qozog'iston 39-o'rin, Ozarbayjon 44-o'rin, Qirg'iziston 81-o'rin, Moldaviya 87-o'rin, Belarus Respublikasi 88-o'rin, Rossiya 94-o'rin, Ukraina 134-o'rin, Tojikiston 155-o'rin, Turkmaniston 170-o'rin va O'zbekiston 114-o'rinni egalladi¹. Mamlakatimiz ushbu indeks bo'yicha 2021-yilda 108-o'rinni egallagan bo'lsa, 2022-yilga kelib 117-o'rinni egalladi². Jahon bankining "Doing Business-2020" indeksi bo'yicha soliqqa tortish reytingi natijalari yakunida mamlakatimiz 69-o'rinni egalladi³.

Dunyoda soliqlarning belgilangan muddatida hamda to'liq hajmda davlat budjetiga kelib tushishiga qaratilgan zamonaviy vositalarni samarali qo'llash orqali davlat budjeti manfaatlarini ta'minlash maqsadiga qaratilgan yangi innovatsion loyiha va tashabbuslarni joriy etish masalalariga katta ahamiyat qaratilmoqda. Shular jumlasidan soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatining ixtiyoriy bajarilishini, ya'ni ixtiyoriy soliq intizomini rag'batlantirish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini risk boshqaruv (Risk-management system) tizimi vositasida baholash va tadbirkorlik hamda investitsiya muhitining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun soliq tekshiruvlarini xo'jalik yurituvchi subyektlarning risk darajasiga qarab amalga oshirish masalalariga alohida tadqiqot o'tkazish yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor berilmoqda.

¹ Terry Miller, Anthony B.Kim, James M.Roberts. 2020 index of Economic Freedom. The Heritage Foundation. 2020 by The Heritage Foundation 214 Massachusetts Ave., NE Washington, DC 20002 (202) 546-4400 | heritage.org. United States of America. ISBN: 978-0-89195-300-5.

² <https://www.gazeta.uz/uz/2022/02/15/economic-freedom-index/>

³ <https://www.doingbusiness.org/content/dam/DoingBusiness/country/Uzbekistan/UZB.pdf>.